



“IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI”

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

Toshkent Arxitektura - Qurilish Universiteti

“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrası assistenti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-5281-6196>

E-mail: salayevfazliddin7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21356406>


Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-demografik omillar tushunchasining tahlili, mazmuni va mohiyati hamda ularning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan. Ijtimoiy-demografik omillarning rivojlanishi uchun poydevor bo'lgan sohalar demografiya, sotsiologiya, iqtisod va statistika kabi fanlar bilan shug'ullangan olimlar va ular tomonidan yaratilgan ushbu sohaga oid nazariyalar hamda ilmiy asarlar haqida ham fikr yuritilgan. Aholi soni, tarkibi (yoshi, jinsi, ma'lumoti va b.), migratsiya kabi masalalarni o'rganish, demografik omillarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan demografiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: dinamika, aholi, jins, byulleten, statistika, sotsiologiya, biologik omillar, assimilyatsiya, integratsiya, etnik jarayonlar, siyosiy demografiya, vabo, primitive, oldindustrial, predmet, globallashuv, madaniy mintaqa, ijtimoiy holat, regional.

Аннотация. В данной статье представлен анализ концепции социально-демографических факторов, их содержания и сущности, а также их научных и теоретических основ. Рассматриваются ученые, работавшие в таких дисциплинах, как демография, социология, экономика и статистика, которые легли в основу развития социально-демографических факторов, а также созданные ими теории и научные работы в этой области. Обсуждается также возникновение и развитие науки демографии, изучающей такие вопросы, как численность населения, его состав (возраст, пол, образование и т. д.), миграция и анализ демографических факторов.

Ключевые слова: динамика, население, гендер, бюллетень, статистика, социология, биологические факторы, ассимиляция, интеграция, этнические процессы, политическая демография, чума, примитивный, доиндустриальный, субъект, глобализация, культурный регион, социальная ситуация, региональный.

Abstract. This article provides an analysis of the concept of socio-demographic factors, their content and essence, as well as their scientific and theoretical foundations. It also discusses the scientists who were engaged in such disciplines as demography, sociology, economics and statistics, which are the





basis for the development of socio-demographic factors, and the theories and scientific works created by them in this field. It also discusses the emergence and development of the science of demography, which studies issues such as population size, composition (age, gender, education, etc.), migration, and the analysis of demographic factors.

Keywords: dynamics, population, gender, bulletin, statistics, sociology, biological factors, assimilation, integration, ethnic processes, political demography, plague, primitive, pre-industrial, subject, globalization, cultural region, social situation, regional.

Ma'lumki, O'zbekiston hududi uzoq davom etgan tarixiy va etnik jarayonlar natijasida shakllangan qadimiy madaniy mintqa hisoblanadi. Bu qadimiy madaniy mintqada qadimga turli xil urug', elat va qabila vakillari kirib kelib o'zbek xalqining shakllanishi jarayoniga qo'shib ketganliklari va alohida o'rin tutganliklari ko'p bor ta'kidlangan hamda olimlarimiz tomonidan ilmiy asosda isbotlab berilgandir.


Ijtimoiy-demografik omillar – bevosita jamiyatga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni uning rivojlanishi, o'sishi va ijtimoiy jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi aholi soni, tarkibi va uning o'zgarishlari bilan bog'liq ko'rsatkichlar jamlanmasidir. Ijtimoiy-demografik omillarning ilmiy-nazariy asoslari demografiya, sotsiologiya, geografiya, statistika va iqtisod fanlari tutashgan nuqtada shakllangan bo'lib, aholi soni, tarkibi (jinsi, yoshi, ma'lumoti) va takror barpo bo'lishi qonuniyatlarini ilmiy asoslar orqali tushuntiradi.

Ijtimoiy-demografik omillarni o'rganishda demografiya fani rivojlanishi jarayoni bilan bog'lab o'rgansak, yanada tushinarliroq va maqsadga muvofiq bo'ladi. A.G.Volkov demografiyani "ijtimoiy tarixiy sharoitda aholining ko'payishi haqidagi fan" deb hisoblaydi. Professor B.Urlanis demografiya haqida "Demografiya – bu fandır. Ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, shuningdek, biologik omillarni tahlil qilish asosida hodisa va jarayonlarning tuzilishi, joylashishi va dinamikasidagi qonuniyatlarni o'rganadi va shu asosida aholi nazariyasini ishlab chiqadi" – deb ta'kidlaydi¹. D.I.Valentiy va A.Ya.Kvasha "Demografiya asoslari" asarida demografiyani aholining ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarini o'rganuvchi tarixan shakllangan fan sifatida keltiradilar. V.Borisovning so'zlariga ko'ra, demografiyaning predmeti – bu aholining tabiiy harakati qonuniyatlaridir².

Demografiya – XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan sifatida shakllana boshlagan. Aynan o'sha davrdan buyon demografiya hozirgi kungacha

¹ Бутов В.И. Демография – Март: Москва-Ростов-на-Дону, 2003. – С. 16.

² Уша манба. – С. 16-17.





fan sifatida ancha yuksaldi hamda rivojlandi. Hozirgi globallashuv zamonida demografiya fani ilmiy yangiliklar yaratish va rivojlanishdan to'xtagani yo'q. Demografiyaning paydo bo'lish boshqa fanlardan farqli o'laroq aniq bir sanaga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Demografiya fanining paydo bo'lish tarixi haqida bir qancha ilmiy manbalar mavjuddir. J.Grauntning "O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari", A.Giyyarning "Inson statistikasi elementlari yoki qiyosiy demografiya", Jan Bertillonning "Fransiya aholisi harakatining statistikasi", M.V.Lomonosovning "Rus xalqini saqlash va uning ko'payishi", A.Ketlening "Inson imkoniyatlarining rivojlanishi yoki ijtimoiy fizika tajribasi", D.K.Shelestovning "Demografiya: tarix va zamonaviylik", V.Borisovning "Demografiya" asarlarini aytib o'tishimiz mumkin.

Demografiyaning fan sifatida vujudga kelish tarixi 1662-yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim holatlari nihoyatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O'z salomatliklarini saqlash maqsadida, mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqqan va 1662-yili o'zining 90 betdan iborat "O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari" kitobini yozgan. Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta'sirini 14 o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o'laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko'rib chiqishmagan. Demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX-XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan olingan³.

³Abdurahmonov Q.X. Abduramanov X.X. Demografiya – T.: "Noshir", 2011 – B.14.





“Demografiya” asari muallifi V.Borisov J.Grauntni nafaqat demografiyaning, balki sotsiologiya va statistikaning ham otasi deb nomlagani alohida ahamiyatlidir.

XVII- XVIII asrlardayoq J.Graunt, keyinchalik E.Galley ijtimoiy jarayonlarni miqdoriy tadqiq etish uslublarini ishlab chiqqandilar⁴. Lekin, XVII asr statistikasining asoschisi sifatida uch kishi – J.Graunt, V.Petti va E.Galleylar e’tirof etiladi.

XVIII – XIX asrlarda jamiyat hayotidagi demografik jarayonlarni o’rganishga qiziqish kuchaydi. Shu davrlarda yashab, ijod qilgan mashhur siyosatchilar, iqtisodchilar, tarixchilar, shifokorlar, matematiklar tomonidan demografik jarayonlarni o’rganishga doir qator izlanishlar va tadqiqotlar olib borildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida demografiya fanini nomlashga olimlar tomonidan ko’plab urinishlar bo’ldi va bu ijobiy hal etildi. Bu sohada qilinayotgan ishlar va yaratilayotgan yangiliklar fanning ahamiyatini oshirib bordi.

Nihoyat XIX asrning o’rtasida fransuz olimi A.Giyyar yangi vujudga kelgan fanga nom berdi. Uning 1855-yilda Parijda “Inson statistikasi elementlari yoki siyosiy demografiya” deb nomlangan kitobi chop etildi. Bu asarda demografiyaning mustaqil fan sifatida maqsadi yoritilgan.

Demografik tavsiflarni tarixiy taraqqiyot darajasi va o’ziga xosliklari va bog’liqligiga bag’ishlangan tadqiqotlar keng tus oldi. Aholining tabiiy o’sishida: primitive, oldindustrial va industrial jamiyatlardagi tafovutlar, qishloq va shahar aholisi demografik xulqidagi o’ziga xosliklarni o’rganishga ham e’tibor qaratildi. Xorijiy-iqtisodiy taraqqiyotiga mos bo’lishi zarurligi muommosini ko’tardilar. Ularning fikricha, bu aholining sonini nazorat qilish mezoni bo’lmog’i lozim. XX asrda diqqat markazidagi obyektlardan biri tug’ilish statistikasi, uning regional xususiyatlari, tug’ilishning o’sishi omillari, kasb, ijtimoiy holat, din masalalari bo’ldi. So’nggi paytlarda tadqiqotchilar ekologik masalalarga ko’proq etibor qaratmoqda.

XX asr demograf olimlardan: J.Keyns, A.Sovi, U.Fogt, J.Xaksli, F.Osborn, G.Borstrom, J.Robbins, B.Urlanis, D.Valentey, A.Kvashalar tadqiqotlari e’tiborga molik⁵.

Demografik jarayonlar – aholining tabiiy o’sishi yoki kamayishi orqali etnoslarning ijtimoiy makondagi salmog’ini o’zgartirsa, etnik jarayonlar, chunonchi assimilyatsiya, integratsiya o’z navbatida demografik xulq-atvorga ta’sir ko’rsatadi.

⁴ Народонаселение. Энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия. 1994. – С. 93.

⁵ Казьмина О.Е. Пучков П.И. Основы этнодемографии – М.: “Наука”, 1994 – С. 8-9.





Har qanday davlatning tarixi – bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o‘z ifodasini topadi. Aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma‘lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi.

Aholini eng birinchi rasmiy ro‘yxatga olish 1790-yilda AQShda, keyinchalik 1800-yilda Shvetsiya va Finlyandiyada, 1801-yilda – Angliya, Daniya, Norvegiya va Fransiyada o‘tkazilgan. Ammo, bu aholi ro‘yxatlari juda oddiy shaklda hamda uzoq muddatga cho‘zilgan. Masalan, birinchi AQShda aholini ro‘yxatga olish ishlari 18 oy davomida olib borilgan. XIX asrga kelib, aholini ro‘yxatga olish juda kengaydi. Qator Yevropa mamlakatlarida statistika tashkilotlari tuzildi. Aholini ro‘yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borilishi yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 1870-1879-yillarda dunyoning 48 ta, 1890-yillarda esa 57 ta davlatida aholi ro‘yxati o‘tkazilgan. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro‘yxatga olingan bo‘lsa, XX asr boshida 54 foiz aholi ro‘yxatdan o‘tkazilgan⁶.

Manbalarda keltirilishicha, O‘zbekiston hududida dastlabki aholi ro‘yxatga olish 1897-yilda o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu tadbir ma‘lumotlari XIX asr oxirida O‘zbekistonda demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan.

O‘zbekiston hududida keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970 va 1979-yillarda aholini ro‘yxatga olish ishlari tashkil etilgan. So‘nggi marta aholini ro‘yxatga olish 1989-yilda o‘tkazilgan⁷.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ma‘lumotlar, faktlar, nazariyalar, statistik ma‘lumotlardan umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy-demografik omillar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va aholi tarkibiga ta‘sir etuvchi omillar jamlanmasidir. Tadqiqotimiz davomida ijtimoiy-demografik omillarning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berildi va kerakli xulosalar chiqarildi. Ijtimoiy-demografik omillar jamiyatning barqaror rivojlanishi, mehnat bozori, ta‘lim, ijtimoiy-siyosatni shakllantirish va jamiyatda etnoslararo munosabatlarni rivojlantirish hamda umummilliy totuvlikni mustahkamlash uchun juda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan dabiyyotlar ro‘yxati:

1. Бутов В.И. Демография – Март: Москва-Ростов-на-Дону, 2003. – С. 16.
2. Abdurahmonov Q.X. Abduramanov X.X. Demografiya – T.: “Noshir”, 2011 – B.14.

⁶ <http://toshstat.uz/uz/matbuot-markazi/news/10557-aholini-ro-yxatga-olish-tarixi>

⁷ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34298-o-zbekistonda-aholini-ro-yxatga-olish-so-nggi-marta-1989-yilda-o-tkazilgan>





3. Народнонасиление. Энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия. 1994. – С. 93.
4. Казьмина О.Е. Пучков П.И. Основы этнодемографии – М.: “Наука”, 1994 – С. 8-9.
5. <http://toshstat.uz/uz/matbuot-markazi/news/10557-aholini-ro-yxatga-olish-tarixi>
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34298-o-zbekistonda-aholini-ro-yxatga-olish-so-nggi-marta-1989-yilda-o-tkazilgan>

